

**AYOLLAR JAMIYATIDA TEXNIKALARNING O'RNI
(TEMIR YO'LLARI QIYOSIDA)**



Xamdamova Lola Olimjon qizi

Email: xamdamovalolajon9497@gmail.com

Annotatsiya: Oxirgi yuz yillar mobaynida ayollarning roli texnika, texnologiya hattoki ilm fan sohasida ham tobora kengayib bormoqda. O'zbekistondagi ayollar transport, muhandislik, axborot texnologiyalari, energetika va sanoatsozlik sohasida hamda texnika va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan yuksak tarmoqlarda faoliyat yuritib kelmoqdalar. Xususan, temiryo'l transportida ayollar mashinist, dispetcher, muhandis va logistika mutaxassislar sifatida ishlamoqda. Bu maqolada ayollarning texnikadagi o'rni, ular bilan yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va to'siqlar haqida hamda ularning yurtimizga qo'shayotgan hissalarini haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ayollar, texnika, muhandislik, transport, temiryo'l, innovatsiya, gender tengligi, ishlab chiqarish, ayollarning jamiyatdagi muhim o'rinlari.

Kirish

Ayollar zotini e'zozlash el-yurtimiz uchun azal azaldan ezgu qadriyat bo'lib kelgan. Buning tasdig'i tariximizda, hayotimizda ko'plab tasdig'ini topgan. Buni misollar yordamida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa mustaqillik yillari, mustaqillik yillarida ayollarimizni jamiyatdagi o'rni yuqori baholanganligi va mavqeyining yanada ortganligini, ularning ilm fan sohasidan tashqari hatto texnika sohasida ham yuksalganini bizlarni yanada quvontiradi.

Hozirgi kundagi "O'zbekiston temir yo'llari" jamiyati tasarrufida ham, bugungi kunda ko'plab Opa singillarimiz faoliyat yuritib kelishmoqda. Temiryo'lchi ayollar nafaqat boshqarmada, balki yo'llarda ham ish olib borishmoqdalar. Shu bilan birga turli xil yutuqlarga ham erishishmoqdalar.

Ayollarning roli bugungi kunda juda yuksakdir. Eslab o‘tamiz, bir tarixni ayollar hijobda yoki uzun kiyimlarda, uydan chiqmay faqat bola va oila uchun qaralgandir. Onalarimiz hatto ilmi ham bo‘lishmagan. Ular faqat avlod qoldiruvchi bir inson sifatida qaralgan. Gender tenglik degan tushuncha ham bo‘lmagan. Ayollarni mustaqillikdan oldin juda ergashgan. Ularning zimmasiga og‘ir ishlar va yumushlar yuklashgan. Erkaklar qatorida turib hizmat qilgan. O‘ylab kuring, bu juda achinarlidir. Lekin, Hurmatli Prezidentimiz mustaqillik qarorini qabul qilgandan keyin, alohida ayollar savodxonligiga urg‘u berildi. Onalar va bolalar tuyg‘usiga chuqur e‘tibor qaratildi. Ayollarni erkaklar bilan bir safga turib, ilm olishiga imkoniyatlar yaratildi. Hatto temir yo‘llar sohasida ayollar kirib kela boshladilar. Boshida ayollarni qulidan hech narsa kelmaydi deb o‘ylagan manqurt ma’ sullar tilini tishlab qolishdi. Bu ayollarimizga berilgan e‘tiborni natijasini bir ko‘rinishi deb bilsak bo‘ladi.

Ayollarning texnikadagi o‘rni

Texnika sohasida ayollarning ishtiroki so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Ilgari erkaklar ustunlik qilgan sohalarda ham ayollar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular muhandislik, texnologiya, transport, energetika, axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab sohalarda o‘z o‘rniga ega.

Texnikaning turli yo‘nalishlarida ayollarning ishtiroki:

- **Muhandislik va ilmiy tadqiqotlar**

Ayollar aerokosmik, qurilish, mexanika, elektrotexnika va boshqa muhandislik yo‘nalishlarida faol ishlamoqda.

Ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarda muhim loyihalarda ishtirok etmoqda.

- **Transport va logistika**

Ayollar temiryo‘l, aviatsiya, avtomobil va dengiz transportida turli lavozimlarda ishlaydi.

Mashinist, uchuvchi, dispetcher, logistika mutaxassisi kabi kasblarda ko‘p uchraydi.

- **Axborot texnologiyalari (IT)**

Ayollar dasturlash, sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar muhandisligi kabi yo‘nalishlarda muvaffaqiyat qozonmoqda.

IT sohasida tadbirkor ayollar ham ko‘paymoqda.

- **Ishlab chiqarish va avtomatlashtirish**

Ayollar zavod va fabrikalarda injenerlik, sifat nazorati, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bilan shug‘ullanmoqda.

Robototexnika va sun‘iy intellekt asosidagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda ham faol ishtirok etmoqda.

- **Energetika va ekologiya**

Ayollar muqobil energiya manbalari, ekologik muhandislik va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida yetakchi rol o‘ynamoqda. Umuman olganda, texnika sohasida ayollar roli ortib bormoqda va ular muhim yutuqlarga erishmoqda. Ayollar bu sohalarda erishgan yutuqlari hozirda tillarga doston bo‘lmoqda va biz ularni televizordan hamda mobil qurilmalardan xabar topishimiz mumkin.

Har bir sohada insonlar muammolarga uchraydi shuningdek ayollar hamdir. Ko‘p sohalarda odamlar erkaklarni ko‘rishni xoxlaydi. Bu esa ayol va erkak o‘rtasida munosabatlarga to‘siq bo‘ladi. Ayniqsa ayollar rahbarlik lavozimiga erishish ham bir muncha qiyin boladi. Bu insonlar ko‘plab izlanishlar orqali bunga erishadilar.

Albatta ayollar uchun imkoniyatlar va muammolar yechimlar ham berilmoqda.

Qo‘llab-quvvatlash dasturlari – Ko‘plab davlatlar texnika sohasidagi ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar, stipendiyalar va maxsus o‘quv dasturlarini taqdim etmoqda.

Texnologik taraqqiyot – Innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi ayollarga yangi kasblar va lavozimlarni egallash imkoniyatini yaratmoqda.

Gender tengligi harakatlari – Texnik sohalarda ayollar uchun teng imkoniyatlarni yaratish maqsadida xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar turli tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Temiryo‘l transportida ayollarning o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda. Ilgari bu soha og‘ir mehnat talab qilgani sababli erkaklarga xos deb qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda ayollar ham ushbu tizimda faoliyat yuritmoqda.

Masalan, O‘zbekistonda poyezd haydovchisi bo‘lib ishlayotgan ayollar soni oshib bormoqda. Dastlab bu yangilik ko‘pchilik uchun ajablanarli tuyulgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular tajribali mashinistlar bilan bir qatorda harakat xavfsizligini ta’minlamoqda.

Shuningdek, ko‘plab mamlakatlarda ayollar temiryo‘l infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarida ishtirok etmoqda. Masalan: Germaniyada Deutsche Bahn kompaniyasi ayollar uchun muhandislik va texnik lavozimlarga maxsus dasturlar ishlab chiqdi. Bu dasturlar ayollarning sohada ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, temiryo‘l sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda ham ayollarning o‘rni katta. Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini rivojlantirish va mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni joriy etishda ayollar muhim rol o‘ynaydi. Masalan: Yaponiya temiryo‘l tizimida ayollar

chiptaxona, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish va dispetcherlik ishlarida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Shu bilan birga, ayollar temiryo‘l sohasida rahbarlik lavozimlarida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. AQSh va Yevropa mamlakatlarida temiryo‘l kompaniyalari rahbariyatida ayollar ko‘payib, yirik infratuzilma loyihalarini boshqarishga o‘tmoqda. Masalan, AQShning Amtrak kompaniyasida ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlaydi va bu ularning boshqaruvda ham muvaffaqiyatli bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ko‘rinib turibdiki, ayollar temiryo‘l transportining turli jabhalarida samarali faoliyat yuritmoqda va bu nafaqat ular uchun, balki butun soha rivoji uchun ham foydali.

Xulosa: Temiryo‘l transportida ayollarning faolligi ortib borayotgani bu sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ayollar mashinist, dispetcher, texnik xodim, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis, muhandis va rahbar lavozimlarida ishlayapti. Ilgari og‘ir mehnat talab qiladigan kasblar faqat erkaklar tomonidan bajarilishi odatiy hol bo‘lsa, bugun texnologiyalar rivojlanib, ish sharoitlari yaxshilanishi natijasida ayollar ham ushbu sohada o‘z o‘rnini topmoqda. Masalan, ayol mashinistlarning paydo bo‘lishi nafaqat temiryo‘l tizimidagi yangilik, balki bu sohaga qiziquvchi ayollar uchun motivatsiya ham bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, xizmat ko‘rsatish va harakat xavfsizligini ta‘minlashda ayollar alohida e‘tiborga loyiq. Ular yo‘lovchilarga qulaylik yaratish, muammolarni tez va samarali hal qilish, mijozlar bilan muloqotda bo‘lish kabi jihatlarida yuqori natijalar ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayollar temiryo‘l infratuzilmasining rivojlanishida ham ishtirok etib, turli texnik loyihalar ustida ishlamoqda. Ularning ushbu sohadagi faolligi temiryo‘l tizimining yanada samarali, xavfsiz va innovatsion bo‘lishiga hissa qo‘shmoqda. Kelajakda ayollar uchun bu sohada yanada ko‘proq imkoniyat yaratish, ish sharoitlarini moslashtirish va kasbiy rivojlanishiga ko‘mak berish zarur. Chunki ayollar temiryo‘l transportining ajralmas

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Respublika axborot agentligi. (2024). Temiryo‘l sohasida ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. [Online] Mavjud: www.uza.uz
2. Xolmurodova, D. (2022). Texnika va transport sohalarida gender masalalari: tahlil va istiqbollar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.